**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Mini makkajo‘xori uchun standarti

**(CODEX STAN 188:1993, IDT)**

**Rasmiy nashr**

**O‘zbekiston standartlar instituti**

**Toshkent**

STANDARTLAR INSTITUTI #LWTWIJH6X4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**So‘zboshi**

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25 fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart CODEX STAN 188:1993 “Standard for mini corn” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

*Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.*

*Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli.

STANDARTLAR INSTITUTI #EWTWGHGX4 - 23.09.2026 © ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Mini makkajo‘xori uchun standarti

# Стандарт для мини-кукурузы

# Standard for mini corn

Amalga kiritish sanasi: 25 mart 2026 y.

## 1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart Zea mays L., Gramineae oilasiga mansub makkajo‘xori so‘talaridan yetishtirilgan ipak va anterlardan xoli tijorat so‘talariga taalluqlidir. U iste’molchilarga ipak, po‘stloq va anterlardan xoli, to‘g‘ri tayyorlangan va qadoqlangan yangi makkajo‘xori boshoqlarini taqdim etishga xizmat qiladi. Ushbu standart sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan makkajo‘xori boshoqlariga taalluqli emas.

## 2 Sifatda oid qoidalar

2.1. Minimal talablar

Har bir so‘ta uchun alohida qoidalarga muvofiq va ruxsat etilgan og‘ishlarni hisobga olgan holda, uchala sinflarining mini makkajo‘xori boshoqlari quyidagilar bo‘lishi kerak:

– shikastlanmagan bo‘lishi;

– yaroqli bo‘lishi; iste’molga yaroqsiz bo‘lgan chirigan va buzilgan mahsulotga yo‘l qo‘yilmaydi;

– toza bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinadigan ifloslantiruvchi zarrachalardan deyarli xoli bo‘lishi;

– zararkunanda hasharotlar tomonidan shikastlanmagan bo‘lishi;

– ortiqcha sirt namligisiz bo‘lishi;

– begona hid va/yoki ta’msiz bo‘lishi;

– yangi bo‘lishi;

– “ipak”dan deyarli xoli bo‘lishi.

So‘tasining asos qismidagi kesim toza va qirralari tekis bo‘lishi kerak. Saqlash jarayonida yuzaga kelgan kesim yuzasining rangidagi kichik o‘zgarishlarga ruxsat etiladi.

2.1.1. Mini-makkajo‘xori boshoqlarining yetuklik darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, boshoqlar quyidagilarni amalga oshira oladi:

– tashish va yuklash ishlariga bardosh bera olsin;

– manzilga qoniqarli holatda yetib borsin.

### 2.2. Tasniflash

Mini-makkajo‘xori so‘talari quyida keltirilgan uchta sinfga bo‘linadi:

*Rasmiy nashr*
STANDARTLAR INSTITUTI tasdiqlangan - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2.2.1. “Ekstra” sinfi

Ushbu sinfga mansub mini-makkajo‘xori so‘tasi saranjom-sarishta ko‘rinishda bo‘lishi, barg o‘rami, poya va “ipak”dan xoli, butun va a’lo sifatli bo‘lishi kerak. Ularning so‘tasi va/yoki tovar toifasining xususiyatlariga mos kelishi lozim. Mahsulotning tashqi ko‘rinishini buzmaydigan, uning sifatiga, saqlanishiga va qadoqdagi yaxshi tovar ko‘rinishiga ta’sir qilmaydigan juda kichik sirt nuqsonlaridan tashqari, boshqa nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.2.2. I - sinfi

Ushbu sinfga mansub mini-makkajo‘xori so‘talari saranjom ko‘rinishda bo‘lishi, barg o‘rami va poyadan xoli hamda yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular so‘tasi va/yoki tovar toifasining xususiyatlariga mos kelishi lozim. Quyida keltirilgan kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi, biroq bu nuqsonlar mahsulotning tashqi ko‘rinishini buzmasligi, uning sifatiga, saqlanishiga va qadoqdagi yaxshi tovar ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi sharti bilan:

– shakli, rangi va tuzilishidagi ahamiyatsiz nuqsonlar;

– notekis joylashgan, yetarli darajada rivojlanmagan donalar (urug‘kurtaklar) bilan bog‘liq kichik nuqsonlar;

– yuzadagi kichik nuqsonlar, masalan, ezilishlar, tirnalishlar yoki boshqa mexanik shikastlanishlar. Ularning umumiy maydoni so‘tasining butun yuzasining 5 %idan oshmasligi kerak.

2.2.3. II - sinfi

Ushbu sinfga yuqorida keltirilgan ikki sinfga sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha kirmagan, biroq 2.1-kichik bo‘limda bayon etilgan minimal talablarga javob beradigan mini-makkajo‘xori so‘talari kiradi. Bunda, sinflar mahsulotning asosiy xususiyatlari — sifat, saqlanish va yaxshi tashqi ko‘rinishni saqlab qolgan holda, quyidagi nuqsonlarga ega bo‘lishi mumkin:

– shakli, rangi va tuzilishidagi nuqsonlar;

– notekis joylashgan, yetarli darajada rivojlanmagan donalar (urug‘kurtaklar) bilan bog‘liq nuqsonlar;

– yuzadagi nuqsonlar, masalan, ezilishlar, tirnalishlar yoki boshqa mexanik shikastlanishlar. Ularning umumiy maydoni so‘taning butun yuzasining 10 %idan oshmasligi kerak;

– so‘talardan ajratilgan va/yoki ajratilmagan “ipak”ning mavjudligi; biroq uning miqdori mahsulotning tashqi ko‘rinishini buzmaydigan darajada minimal bo‘lishi lozim.

## 3 Kaliblashga oid qoidalar

Kalibrlash mini-makkajo‘xori so‘talarining uzunligiga ko‘ra, quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

| Hajm toifasi | Uzunlik shkalasi (cm) |
|---|---|
| A | 5.0 - 7.0 |
| B | 7.0 – 9.0 |
| C | 9.0 – 12.0 |

Barcha o‘lchamlar uchun so‘talarning minimal diametri 1 cm, maksimal diametri esa 2 cm bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #LWTWIJH6X4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## 4 Ruxsat etiladigan chetlanishlarga oid qoidalar

Belgilangan sinf talablariga to‘liq javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ayrim chetlanishlarga ruxsat etiladi.

### 4.1 Sifat bo‘yicha ruxsat etiladigan chetlanishlar

4.1.1 “Ekstra” sinfi

Mini-makkajo‘xori so‘talarining umumiy soni yoki massasining 5 % gacha bo‘lgan qismi ushbu sinf talablariga javob bermasligi mumkin, biroq ular I sinf mezonlariga mos kelishi yoki ayrim hollarda ushbu sinf bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga ega bo‘lishi lozim.

4.1.2. I - sinfi

Mini-makkajo‘xori so‘talarining umumiy soni yoki massasining 10 % gacha bo‘lgan qismi ushbu sinf talablariga javob bermasligi mumkin, biroq ular II sinf mezonlariga mos kelishi yoki ayrim hollarda ushbu sinf bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga ega bo‘lishi lozim.

Barg o‘rami va poyasi to‘liq olib tashlanmagan so‘talar holatida, uzunligi 0,5 cmdan oshmaydigan barg o‘rami va poyaga ega so‘talarning ulushi faqat 5 % gacha ruxsat etiladi.

4.1.3. II - sinfi

Mini-makkajo‘xori so‘talarining umumiy soni yoki massasining 10 % gacha bo‘lgan qismi na ushbu sinf talablariga, na minimal talablarga javob bermasligi mumkin, biroq iste’molga yaroqsiz holga keltiradigan chirigan yoki boshqacha shikastlangan mahsulot bundan mustasno.

Barg o‘rami va poyasi to‘liq olib tashlanmagan so‘talar holatida, uzunligi 0,5 cmdan oshmaydigan barg o‘rami va poyaga ega so‘talarning ulushi faqat 5 %gacha ruxsat etiladi.

4.2. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etiladigan chetlanishlar

“Ekstra” sinfi uchun mini-makkajo‘xori so‘talarining umumiy soni yoki massasining 5 %, I va II sinflar uchun esa 10 % gacha bo‘lgan qismi 3-bo‘limda ko‘rsatilgan talab etilgan o‘lcham-larga mos kelmasligi mumkin, biroq ularga yaqin bo‘lishi kerak.

## 5 Mahsulotning tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

5.1. Birxilligi

Har bir qadoq tarkibi birxil bo‘lishi va mini-makkajo‘xori so‘talari bir xil kelib chiqishi, sifati va o‘lchamga ega bo‘lishi kerak. Qadoqning ko‘zga ko‘rinadigan qismi butun qadoq tarkib-iga mos kelishi lozim.

5.2. Qadoqlash

Boshoqlar ularning sifatini saqlashni ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak. Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar yangi[1], toza va sifatli bo‘lishi lozim, shunda mahsulot ichki va tashqi shikastlanishlardan himoyalangan bo‘ladi. Materiallardan, xususan, qog‘oz va savdo spetsi-fikatsiyasiga ega yorliqlardan foydalanish mumkin, agar matn yoki markirovka uchun ishlatilgan siyoh va yopishtiruvchi moddalar toksik bo‘lmasa.

Mini-makkajo‘xori boshoqlar “Yangi tropik meva va sabzavotlarni qadoqlash va transport qilish bo‘yicha tavsiya etilgan xalqaro qoidalar va normalar (CAC/RCP 44-1995, Amd. 1-2004)”ga muvofiq qadoqlanishi lozim.

5.2.1. Qadoqning tavsifi

STANDARTLAR INSTITUTI #LWTWIJH6X4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

1 Ushbu standartga muvofiq, oziq-ovqat mahsulotlari uchun qayta ishlangan materiallar ham shu yerga kiritilgan.

Qadoq so‘talarning sifatini saqlash, gigiyena va ventilyatsiya talablariga javob berishi, yuklash, tashish va saqlash qoidalarini ta’minlash uchun yetarli mustahkamlikka ega bo‘lishi kerak. Qadoq tarkibida begona moddalar va begona hidlar bo‘lmasligi lozim.

## 6 Tamg‘alash

### 6.1. Chakana savdo uchun qadoq

“Oldindan qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini markirovkalash bo‘yicha umumiy standart (CODEX STAN 1-1985, Rev. 1-1991)” talablariga muvofiq asosiy qoidalar quyidagilar:

**6.1.1. Mahsulotning tavsifi**

Agar mahsulot shaffof bo‘lmagan qadoqda bo‘lsa, har bir qadoqda (yoki katta miqdorda yetkazib beriladigan mahsulot to‘p) mahsulot nomi ko‘rsatilishi kerak; shuningdek, sinf nomini ham ko‘rsatish mumkin.

### 6.2. Ulgurji savdo uchun qadoq

Har bir qadoq birligi quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak, barcha ma’lumotlar konteynerning bir tomoniga aniq, o‘chmas harflar bilan yozilishi yoki yuk bilan birga keladigan hujjatlarda ko‘rsatilishi lozim. Agar mahsulot katta partiyada bo‘lsa, barcha ma’lumotlar yuk bilan birga keladigan hujjatlarda berilishi kerak.

**6.2.1. Identifikatsiya**

Eksportyor, qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchining ismi va manzili. Identifikatsiya kodi (majburiy emas).

**6.2.2. Mahsulotning tavsifi**

Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, nomi. So‘ta nomi yoki tovar toifasi (majburiy emas).

6.2.3. Mahsulot kelib chiqishi

Mahsulot kelib chiqqan mamlakat, ixtiyoriy ravishda esa yetishtirilgan hudud, viloyat yoki mintaqaning nomi.

6.2.4. Tovar identifikatsiyasi

– sinfi;

– o‘lcham (o‘lcham toifasi);

– sof massa (majburiy emas).

6.2.5. Rasmiy nazorat belgisi (majburiy emas)

## 7 Kontaminantlar

7.1. Og‘ir metall elementlar

Mini-makkajo‘xori so‘talaridagi og‘ir metall miqdori ushbu mahsulot uchun “Codex Alimentarius” Komissiyasi tomonidan belgilangan maksimal darajadan oshmasligi lozim.

Izoh: Ko‘plab mamlakatlarda davlat qonunchiligi eksportyor va/qadoqlovchining to‘liq nomi va manzilini ko‘rsatishni talab qiladi. Identifikatsiya kodi ko‘rsatilgan hollarda, yonida “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi” belgisi qo‘yilishi yoki ekvivalent ma’lumot berilishi kerak.

7.2. Pestitsidlar qoldiqlar

Mini-makkajo‘xori so‘talaridagi pestitsid qoldiqlari miqdori ushbu mahsulot uchun “Codex Alimentarius” Komissiyasi tomonidan belgilangan maksimal darajadan oshmasligi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #LWTWIJH6X4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## 8 Gigiena talablari

8.1. Ushbu standart talablariga muvofiq himoyalangan mahsulotlar tayyorlanishi va transport qilinishi quyidagi hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

– “Oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy gigiyena tamoyilari bo‘yicha tavsiya etilgan xalqaro texnik normalar va qoidalar (CAC/RCP 1-1969, Rev. 4-2003)”;

– “Yangi meva va sabzavotlar uchun gigiyenik normalar va qoidalar (CAC/RCP 53-2003)”;

– boshqa tegishli Codex matnlari, masalan, “Gigiyenik normalar va qoidalar” hamda “Normalar va qoidalar”.

8.2. Mahsulot barcha mikrobiyologik mezonlarga javob berishi kerak, ular “Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mikrobiyologik mezonlarni belgilash va qo‘llash prinsiplari (CAC/GL 21-1997)”ga muvofiq belgilangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #LWTWIJH6X4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI